

**PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA NAZARIYASIDA  
O'QUVCHILAR INTELLEKTUAL QOBILYATINI SHAKLLANTIRISH  
MUAMMOSINING YORITILISHI**

**Jamatova Malika Sherqulovna**

Osiyo Xalqaro Universiteti Ta'lim va tarbiya  
nazariyasi va metodikasi  
(boshlang'ich ta'lim)mutaxassisligi magistranti

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada pedagogika va psixologiya nazariyasida o'quvchilar intellektual qobilyatini shakllantirish muammosining yoritilishi hamda o'rganilishi bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** aqliy faoliyat, tafakkur, intellektual operatsiyalar, intellektual qobiliyat, malaka, ko'nikmalar, psixologiya, pedagogika.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье раскрывается и исследуется проблема формирования интеллектуальной способности учащихся в теории педагогики и психологии.

**Ключевые слова:** умственная деятельность, мышление, интеллектуальные операции, интеллектуальные способности, компетентность, умения, психология, педагогика.

**ABSTRACT**

In this article, the problem of formation of students' intellectual ability in the theory of pedagogy and psychology is explained and studied.

**Key words:** mental activity, thinking, intellectual operations, intellectual ability, competence, skills, psychology, pedagogy.

**KIRISH**

O'quvchilarning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantirishda tarbiyaning ahamiyati muhim rol o'ynaydi. Intellektual va ijodiy faoliyatni oshirish uchun tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Yoshlarning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantirish jarayonida o'quvchilarda jamiyatga naf keltiradigan, shaxsga qo'yiladigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va ko'nikma hosil qilinadi. Bunga erishish uchun har bir o'smirning ongiga, dunyoqarashi va irodasiga tizimli, muntazam ta'sir etib boriladi.

Natijada o'smirlarning intellektual va ijodiy qobiliyatini shakllantirib uni rivojlantirishga imkon yaratiladi.[2]

O'smirlarning intellektual va ijodiy faoliyatni rivojlantirish, iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish, ularning huquqiy ong va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish xalq ta'limi sohasidagi davlat siyosatining eng muhim yo'naliшlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatning kelgusidagi jadal taraqqiyoti yosh istedodlarni anglash, iqtidorli bolalarni tanlab olish va o'qitish tizimini tashkil etish, o'smirlarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi ko'p tarmoqli ta'lim muhitini yaratish bo'yicha ishlar sifatini oshirish zaruratini taqozo etmoqda. Mana shu xususiyatlarni rivojlantirishni amalga oshiruvchi usullarni yaratish yoki intellektual va ijodiy faoliyatni oshirib borishga xizmat qiluvchi manbalar izlab topish, yangi samarali metodlar yaratish muhum vazifalardan biri sanaladi.[2]

Intellekt lotincha intellectus — akd, idrok, tasavvur degan ma'nolarni bildirib, Kishining fikrlash qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasidir. Aql-idrokni rivojlantirish jarayoni o'quv va kognitiv faoliyatning to'g'ri tashkil etilishi bilan mumkin bo'ladi va ayniqsa, boshlang'ich maktab yoshida, bilish uchun shaxsiy ehtiyojlari yetarlicha kuchli bo'lganda samarali bo'ladi. Intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish, mustaqil ijodiy izlanish, tafakkurini rivojlantirish ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifalardan biridir. Boshlang'ich ta'lim bolalarning intellektual rivojlanishining asosiy poydevorini yaratishi kerak, bu esa o'z harakatlarini tanqidiy baholaydigan, taqqoslaydigan, muammoni hal qilishning bir necha usullarini ilgari suradigan, ajratib ko'rsatadigan ijodiy, mustaqil fikrlaydigan intellektual rivojlangan, aqliy va axloqiy sifatlari yuqori darajada shakllangan insonni tarbiyalash boshlang'ich ta'limning umuman, ta'limning eng asosiy maqsadi sanaladi. Bunday maqsadni amalga oshirishda pedagogika va psixologiya nazariyasida o'quvchilar intellektual qobiliyatini shakllantirish muammosining o'rganilishi muhim vazifalardan hisoblanadi.

## ASOSIY QISM

Hozirgi glaballahuv davrida aqliy qobiliyatları shakllanayotgan innellektual rivojlanaotgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiyani, to'g'ri, ilmiy asosda tashkil etish uchun bu jarayonning o'ziga xos psixologik qonuniyatlarini, uning mexanizmlarini, turli yosh davrlaridagi rivojlanish qonuniyatlarini, shuningdek, faol, mustaqil hamda ijodiy tafakkur jarayonini zamonaviy bilimlar asosida tarkib toptirishning samarali usullarini bilishi lozim bo'ladi. Bu borada, yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya muhim o'rin egallaydi. Pedagogika va psixologiya nazariyasida o'quvchilar intellektual qobiliyatini shakllantirish muammolari bir qncha olimlar tomonidan o'rganilib samarali metod va tavsiyalar berilgan. Jumladan, Respublikamizda intellektual qobiliyatini shakllantirish masala

yuzasidan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, B.R.Qodirov, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova R.Toshimov, M.M.Mamatov, E.Z.Usmonova, Z.E.Nishonova, M.Vohidovlarning fikrlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. E.G'.G'oziyev O'zbekistonda tafakkur psixologiyasini keng yoritgan olimlardan biridir. Muallifning fikriga ko'ra, inson tafakkuri o'zining mustaqilligi jihatidan mustaqil va nomustaqligini tafakkurga ajratiladi. «Tafakkurning mustaqilligi deganda, kishining shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga konkret maqsad, yangi vazifalar qo'ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz qilishi, natijani ko'z oldiga keltira olishi, qo'yilgan vazifani hech kimning ko'magisiz, ko'rsatmasiz o'zining aqliy izlanishi tufayli, turli yo'l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak» [1] E.G'.G'oziyev aqliy taraqqiyotning o'sishini maktabda olinadigan bilimlar ta'minlaydi, deb hisoblaydi. O'quvchilarni aqliy jihatdan o'stirish uchun ularni faqat bilimlar tizimi bilangina emas, balki muayyan aqliy faoliyat usullari (tahlil, sintez, taqqoslash, turkumlash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, esda olib qolish va boshqalar) o'quv, ko'nikma va malakalarni ko'zda tutish kerakligini ta'kidlaydi. O'quvchilar aql-zakovatini kamol toptirishda mantiqiy tafakkurning ahamiyati katta, chunki tafakkurning rivojlanishi aqlni qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitadi. Aqliy faoliyat insonning muayyan bilimlarni o'zlashtirish yoki yangiliklarni ochish bilan bog'liq psixik faoliyatdir. Tafakkur atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita, umumlashtirgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, sotsialsababiy bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va prognoz qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir.

Mazkur muammoni V.M.Karimova qo'yidagicha talqin etadi. qobiliyatlar masalasi eng avvalo inson aql-zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning birligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib etishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi. Ilm fandagi an'analar shundayki, aql va idrok masalasi, odamning intellektiga bog'liq sifatlar juda ko'plab tadqiqotlar ob'ekti bo'lgan. Olimlar qobiliyatlarning rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga, ishonzchli metodikalar yaratib, har bir kishining aql sifatiga aloqador bo'lgan ko'rsatkichni o'chashga uringanlar.

Ko'pchilik olimlar odam intellektida uning verbal, miqdoriy, fazoviy ko'rsatkichlarini aniqlab, ularga yana mantiq, xotira va xayol jarayonlari bilan bog'laydilar. Qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, unga va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlар, yashash davri ta'sir ko'rsatadi. Oila muhitining aql o'sishiga ta'sirini hech kim inkor etmaydi. M.G'.Davletshin aqliy tushunchalarni qobiliyat tushunchasi bilan bog'lab o'rgangan. Qobiliyat shakllanishi

va rivojlanishi, birinchidan, ma'lum bir faoliyatga moyillik yoki intilish borligiga va faoliyat natijalarining sifatiga qarab, tegishli tabiiy zehn nishonalarini aniqlash yo'li bilan, ikkinchidan, mutaxassis rahbarligida sistemali faoliyatga jalb etish orqali shaxsning tabiiy xususiyatlarini chiniqtirish va rivojlantirish yo'li bilan, uchinchidan, umumlashgan aqliy operatsiyalarni shakllantirish yo'li bilan borishi kerakki, bu operatsiyalar umumiyligi va maxsus axborotni engil va samarali o'zlashtirishni rejalashtirgan faoliyat bo'yicha malaka va ko'nikmalar hosil qilishni ta'minlasin. Bolalarda qobiliyatlarni o'sishi ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladi.[1]

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning aqliy qobiliyati, diqqati fikrlash darajasi faol rivojlanadi. Bir qator psixolog va pedagog olimlar: A.V. Petrovskiy, B.M.Teplov, V.A. Kruteskiy, E. G'oziev, G'.Shoumarov, O. Roziqov, B. Adizov ta'kidlashlaricha, - bu davrda o'quv faoliyati ta'sirida bolalarning ruhiy faoliyati, diqqati, xotirasi, idrok etish darajasi, tafakkuri, his-tuyg'usi kabi jarayonlar rivojlanadi. A. M. Matyushkin, I. S. Averina, G. D. Chistyakovalar o'quvchi shaxsining intellektual qobiliyatini tashkil qilish masalalari ustida izlanish olib borib, ularning har bir rivojlanish bosqichi bilish jarayonlarining rivojlanishi bilan bog'liq holda qaralishi lozimligini uqtiradilar. R.Ibragimov, O. Roziqov, V.Karimova, E.G'oziev, G'.Shoumarov, Z.Nishonova, B. Qodirovlar ham shaxsning intellektual qobiliyatini rivojlantirishni uning aqliy qobiliyati, bilish faoliyati, mustaqil fikr yuritish muammolariga bog'lab talqin etadilar.

Jumladan, V.Karimova shaxsning faolligi, faoliyat turlari va ularni boshqarishda ijtimoiy-xulq motivatsiyasi ustida ilmiy izlanish olib borgan. R.Ibragimovning tadqiqot ishi boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslarini tadqiq etishga bag'ishlanadi. B.Adizov esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilish qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish ustida izlanish olib borgan. N. X. Yunusova ijodiy faoliyat yordamida boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalash muammosini tadqiq etib, ijodiy faoliyat orqali tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlash modelini tuzib chiqadi. Adabiyotlarning nazariy tahlillaridan ayon bo'lishicha, Respublikamizda bu borada tadqiqot olib borayotgan olimlarning aksariyati o'quvchilarda intellektual qobiliyatni shakllantirishga ularning aqliy salohiyatini rivojlanishish orqali yondashadilar. Shuningdek, Ya. A. Komenskiy o'zining pedagogik konsepsiyasida maktabgacha yoshdagagi bolaning jismoniy, axloqiy va intellektual rivojlanishini yoritgan. U ta'limning keyingi bosqichlari uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan, eng yuqori darajaga qadar bo'lgan ilmiy va amaliy bilimlarning elementlari va asoslarini yaratishda yoshni hisobga olishning dolzarbligini ko'rsatib berdi. Italiyalik pedagog Ramboldoni da Feltre (1378-1446) o'quvchilarning ma'naviy va jismoniy kuchini rivojlantirishda uyg'unlik va faollagini rag'batlantirishga katta ahamiyat bergen.

I. G. Pestalossi (1746-1827) tafakkurni rivojlantirish zarurligi haqida gapirib, bolalarni bilim bilan boyitish orqali ularning aqlini, jismoniy kuchini, axloqiy mayllarini rivojlantirish zarur, deb hisoblaydi. R. Ouen (1771-1858) jismoniy tarbiyani uzlusiz ta'limning asosi sifatida qo'yadi. Uning fikricha, salomatlik, jismoniy barkamollik va aqliy tarbiya insoniyatga chinakam baxt keltiradi Utopik sotsialist K. Fure (1772-1837) esa mehnat jarayonida aqliy va jismoniy tarbiyani uyg'unlashtirish g'oyasini ta'kidladi.

Fransuz publitsisti E.Kabet (1788-1856) jismoniy tarbiyaga katta e'tibor bergen. Jismoniy tarbiya har tomonlama bo'lsa foydali bo'lib, uni aqliy va axloqiy tarbiyadan ajratmaslik kerakligiga ishonch hosil qilgan. Jismoniy faoliyatning insonning shakllanishi va rivojlanishida muhim vosita ekanligi P. F. Lesgaft, I. M. Sechenov kabi olimlar tomonidan ham ta'kidlangan. Ularning ta'kidlashicha, inson jismoniy va aqliy jihatdan birlikda va o'zaro bog'liqlikda rivojlanadi, shuning uchun jismoniy tarbiyani to'g'ri tashkil etilishi yetuk shaxs sifatida shakllanishning omiliga aylanishi mumkin.

### XULOSA

Oxirgi yillarda ko'pgina pedagogik, psixologik tadqiqotlar aynan ta'limdagি qiyinchiliklarning kelib chiqishi va uni bartaraf etish sabablari va mexanizmlarini o'rganish bilan bog'liq bo'lmoqda. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatib turibdiki bolalarning oliy psixik funksiyalarning parsial ya'ni qisman rivojlanishida ortda qolishi bilan bog'liq sabablarga borib taqaladi.

Ushbu muammolarni ishonchli va samarali aniqlashda pedagogika va psixologiya nazariyasida o'quvchilar intellektual qobiliyatini shakllantirish borasida tadqiqotlar, ilmiy-amaliy o'rganishlar olib borilgan hamda bu borada davomli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Negaki, o'sib-ulg'ayib kelayotgan, jamiyatning asosiy tayanchiga aylanayotgan bolalar, o'smirlar hamda yoshlarda milliy-madaniy va shaxsiy qadriyatlar bilan uyg'un ravishda aqliy qobiliyatni, intellektual salohiyatni yuqori darajada shakllantirib, rivojlantirib borish xalq va davlat rivojidagi muhim va asosiy omillardandir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Djalalov, Baxromjan Begmurzayevich, Ibrohimova, Oftobxon Ma'Rufjon Qizi O'QUVCHILARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI // ORIENSS. 2022. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-quvchilarni-intellektual-rivojlanirishning-psixologik-pedagogik-xususiyatlari> (дата обращения: 24.07.2023).
2. Пирманова Г.Н. О'СМИРЛАРНИНГ INTELLEKTUAL VA IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA PEDAGOGIK

- ASOSLARI . International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI: 10.48047/INT-JECSE/V15I3.2 ISSN: 1308-5581 Vol 15, Issue 03 2023
3. Abdullayeva Sh. A. Sportchilarning tarbiyalanganlik darajasini tashxislash metodlari. - Toshkent: Kamalak, 2002.
  4. Abdullayeva Sh. A., Axatova D. A., Sayitov S. S. va boshkalar. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. - T.: Fan, 2004.
  5. Abdullayev A. Talaba va sport. - Toshkent: Moliya, 2015.
  6. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. - М.: Педагогика, 1989.
  7. Бернштейн Н.А. Биохимические особенности скелетной мускулатуры. Киев: Вища школа, 1998. - 214 с. 7. Бондарчук А.П. Объем тренировочных нагрузок и деятельность цикла развития спортивной формы. // Теория и практика физической культуры. - 1998.